

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASINI JAHON SAYYOHLIK TASHKILOTIDAGI
O'RNINI MUSTAHKAMLASH VA TASHKILOTNING SESSİYALARINI O'ZBEKISTON
RESPUBLIKASIDA O'TKAZISH

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7882877>

Raximov Kozim Raxim o'g'li

*Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya Unversiteti «Xalqaro huquq» fakulteti
3 kurs talabasi E-mail: k.raximov008@gmail.com*

Annotatsiya: *Ushbu maqolada Butunjahon Sayyohlik tashkiloti va O'zbekiston Respublikasi o'rtasidagi hamkorliklar, shuningdek, birga olib borilayotgan loyihalar, Bundan tashqari tashkilotning O'zbekistonda o'tkazilgan hamda o'tkazilishi kutilayotgan sessiyalari, shuningdek yaqinda bo'lib o'tadigan tashkilotning sessiyasi O'zbekistonning turizmi salohiyati qay darajada yuqori ekanligini va bu sessiya davomida mamlakatimizga tashrif buyuradigan sayyohlarga yartilgan sharoitlar haqida bilib olishingiz mumkin.*

Kalit so'zlar: *Butunjahon Sayyohlik tashkiloti, sessiya, turizm, Ijro kengashi, Bosh assambiliya.*

Аннотация: *Эта статья о сотрудничестве между Всемирной туристической организацией и Республикой Узбекистан, а также о совместных проектах. Кроме того, было упомянуто о проведенных и ожидаемых сессиях организации в Узбекистане, а также подробно осведомлено о том, насколько высок туристический потенциал Узбекистана и условия, созданные для туристов, посещающих нашу страну во время этой сессии.*

Ключевые слова: *Всемирная туристская организация, сессия, Туризм, исполнительный совет, Генеральная Ассамблея.*

Abstract: *This article is about the cooperation between the World Tourism Organization and the Republic of Uzbekistan, as well as the joint projects. In addition, it was mentioned about the sessions of the organization that were held in Uzbekistan and those that are expected to be held, as well as how high the tourism potential of Uzbekistan is at the upcoming session of the organization, and the conditions that will be opened to tourists visiting your country during this session. explained in detail.*

Key words: *World Tourism Organization, session, tourism, Executive Council, General Assembly.*

Bugungi kunda davlatlarning rivojlanishi bilan har bir sohaga alohida e'tibor qaratilmoqda shu bilan birga turizm sohasiga ham, turizm sohasi dunyo iqtisodining eng jadal rivojlanayotgan sohalardan biridir. Uning keng qamrovli taraqqiyoti esa, ko'plab mamlakatlar uchun katta daromad manbaiga aylanib bormoqda shu sababdan ham davlatlar tuzimni rivojlantirish uchun yetarlicha imkoniyatlar yaratilmoqda.

Misol uchun har bir davlat turizmni rivojlantirish uchun shuningdek mamlakatda turizm salohiyatini yanada oshirish uchun Butunjahon Sayyohlik tashkilotiga a'zo bo'lishga harakat qilmoqda. O'zbekiston Respublikasi 1993 yilda Jahon Sayyohlik tashkilotiga a'zo bo'lib kirgan shundan so'ng mamlakatimizda turizm sohasiga katta ahamiyatlar qaratilmoqda va imkoniyatlar yaratilmoqda. Misol uchun Turizm vazirligi tashkil etilganligi mamlakatimizda turizm sohasini rivojlantirish uchun katta qadam bo'ldi desam adashmagan bo'laman, bundan tashqari O'zbekiston Respublikasi Butunjahon Sayyohlik tashkilotiga a'zo bo'lib kirgandan so'ng tashkilot bilan bir qancha katta ahamiyatga ega loyihalar olib bordi va bu loyihalar O'zbekiston Respublikasi bilan Butunjahon Sayyohlik tashkiloti o'rtasida bir qancha muhim hujjatlarni izmolashga turtki bo'ldi desam adashmagan bo'laman. Masalan, ⁷¹“1994-yili 19 mamlakat Buyuk Ipak yo'lida Sayyohlikni rivojlantirish to'g'risidagi Samarqand deklaratsiyasini qabul qildi, 1999-yili Turizm va madaniy merosni asrash bo'yicha Xiva deklaratsiyasi shuningdek 2002-yilda esa Ipak yo'li bo'yida sayyohlikka doir Buxoro deklaratsiyasi imzolandi.” Bu mamlakatimizda turizm sohasiga katta e'tibor qaratilayotgani yaqol misol hisoblanadi. Bundan tashqari Butunjahon Sayyohlik tashkiloti tomonidan baho berilishicha, O'zbekiston sayyohlik jabhasi jadal rivojlanayotgan besh mamlakatlar qatoridan o'rin oldi. 1995-yili O'zbekiston Tashabbusi va UNWTO ning qo'llab-quvvatlashgi bilan Toshkentda har yili o'tkaziladigan Xalqaro sayyohlik yarmarkasi ta'sis etildi, va bu bugungi kunda ham Markaziy Osiyo mintaqasidagi asosiy sayohlik anjumani bo'lib qolmoqda. Shuningdek 2004 yilda Butunjahon Sayyohlik tashkilotining Samarqand shahrida Buyuk ipak yo'li bo'yicha mintaqaviy ofisi tashkil etildi, bu esa Butunjahon Sayyohlik tashkiloti bilan mamlakatimiz o'rtasidagi munosabatlarni yanada yaxshilash uchun katta qadam bo'ldi.

Butunjahon Sayyohlik tashkiloti Ijro kengashining 99-sessiyasi O'zbekiston Respublikasida o'tkazilganligi, va sessiya davomida mamlakatimiz tomonidan bir qancha takliflar berilganligi shuningdek, sayyohlik sohasidagi hamkorlikni yanada kengaytirish va «Buyuk Ipak yo'li» berndini keng ommalashtirish bo'yicha Bitim imzolanganligi tashkilot bilan mamlakatimiz o'rtasidagi munosabatlarni yanada mustahkamladi desak adashmagan bo'laman. Bundan tashqari mamlakatimiz Butunjahon Sayyohlik tashkiloti bilan birga katta loyihalarni amalga oshirmoqda. Misol uchun ⁷²O'zbekiston Respublikasining deligatsiyasi tashkilotning 113-sessiyasida ishtirok etgani va ishtiroki davomida O'zbekiston deligatsiyasi rahbari – Bosh vazir o'rinbosari, Aziz Abdusakimov tominidan ikki loyiha ilgari surilganligi hisoblanadi. Bulardan, O'zbekiston nomzodini Butunjahon Sayyohlik tashkiloti Ijroiya kengashiga qo'yilganligi, hamda 2023-yilda tashkilotnin Bosh Assambiliyasining 25-sessiyasini Samarqand shahrida o'tkazish to'g'risidagi takliflarni ilgari surdi. Shuni

⁷¹https://dunyo.info/uz/site/inner?slug=o'zbekistonning_bmt_butunjahon_sayyohlik_tashkiloti_bilan_o'zaro_hamkorlik_munosabatlari_tobora_ravnaq_topmoqda-UMq

⁷² <https://yuz.uz/uz/news/ozbekiston-nomzodi-butunjahon-turizm-tashkiloti-ijroiya-kengashiga-azolikka-qoyildi>

alohida ta'kidlab o'tishim joizki O'zbekiston Respublikasi tashkilotning Ijro kengashiga a'zo bo'lib kerish O'zbekistonning global miqyosda turizm sohasida olib borilayotgan ishlarda eshtirok etishi hamda unda mamlakatimiz manfaatlarini himoya qilish yo'lida xizmat qiladi desam adashmagan bo'laman.

Bugungi kunga kelib mamlakatimizda turizmni rivojlantirish uchun katta ishlar amalga oshirilmoqda va bu masalaga shaxsan Prezidentimizning alohida e'tibor qaratmoqda. Bunga misol qilib ⁷³ «Turizmni rivojlantirish davlar qo'mitasini O'zbekiston Respublikasi Turizm va Madaniy meros vazirligiga o'zgartirilganligi» turizm sohasi davlat uchun katta ahamiyatga ega ekanligini anglatadi.

Joriy yilning 29-mar kuni mamlakatimiz rahbarligida O'zbekistonda turizm salohiyatini oshirish masalasi yuzasidan vedioseliktr yig'ilish o'tkaziladi. Jumladan yig'ilishda Mamlakatimiz katta turizm salohiyatiga ega ekanligini va bu sohadagi kamchiliklar haqida to'xtalib o'tdi: Xususan,⁷⁴ «Turizm bu ham iqtisodiy, ham ijtimoi-madaniy ahamiyatga ega keng qamrovli soha. U daromadi bo'yicha dunyoda uchunchi o'rinda turadi. Mamlakatimizda bu soha izchil rivojlanmoqda. Jumladan, 2022-yilda yurtimizga tashrif buyurgan xorijiy turistlar soni 2021-yilga nisbatan 3 barabar oshgan. Soha eksporti 1 milliard 600 millioni tashkil etadi. Aslida mamlakatimizda bu sohadagi salohiyati ancha yuqori, yurtimizga kelmoqchi bo'lgan sayyohlar juda ham ko'p lekin, ularni qiziqtiradigan joylar haqida kontent juda ham kam, bugungu kunda bizga turistlarni 4-5 kun olib qoladigan dasturlar yetishmaydi.» deya ta'kidlab o'tdi, bundan tashqari yana bir qancha kamchiliklar haqida ham to'xtalib o'tdi. Shuningdek yana shuni ta'kidlab o'tishim joizki O'zbekistonda sayyohlarga yetarlicha imkoniyatlar yaratilishi kerak deb hisoblayman. Jumladan, zamonaviy mehomonxonalar qurilishi va bir qancha xususiy aviakompaniya tashkil etilishi kerak deb hisoblayman. Chunki mamlakatimizga tashrif buyuradigan turistlarga aynan yo'l masalasida katta imkoniyatlar yaratilishi kerak shundan so'ng mamlakatimizga keladigan tursitlar soni yanada ko'proq bo'ladi deb o'ylayman.

Bundan tashqari yuqorida ta'kidlab o'tganimdiki 2023 yilda Butubjahon Sayyohlik tashkiloti Bosh Assambiliyasining 25-sessiysi Samarqand shahrida o'tkaziladi aynan mana shu yig'ish davomida bizning yurtimizga tashrif buyuradigan jahon turizm industriyasining yetakchi vakillari, ishbilarmonlar va investorlarni O'zbekistonga jalb qilish, 158 ta a'zo davlatning 2 mingdan ortiq deligatsiyasi vakillari tashrifini tashkil etish orqali turizm sohasidan tushadigan daromadni oshirish imkonin beradi. Shuningdek mamlakatimizdagi sayyohlarga yaratilgan sharoitlarni, ko'pgina tarixiy joylarni, ko'rishi va tanishib chiqish imkoniga ega bo'ladi. Bu kabi katta yig'ilishlarni O'zbekistonda har yili o'tkazilishini amalga oshirishimiz kerak. Chunki bunday yig'ilishlar mamlakatimizga keladigan turistlarni sonini yanada oshiradi, mamlakatimizni dunyodagi yetakchi sayyohlik salohiyatiga ega mamlakatlar qatoridan joy olishga yordam beradi. Shu bilan birga turistlarga yetarlicha imkoniyatlar

⁷³ https://uzbektourism.uz/downloads/files/statistika/2018-2022_sayoh_soni.xlsx

⁷⁴ <https://president.uz/uz/lists/view/6095>

yaratilishi kerak hisoblanadi. Jumladan, Samarqand, Buxoro, Xiva, Shahrisabz kabi shaharlarda turistlar ko'p tashrif buyuradigan joylarda xizmat ko'rsatadigan xodimlarni til bilish darajasini yanada oshirish hamda ularni ko'piroq har xil turdagi tillarni o'rgatish kerak hisoblanadi. Sababi, u yerga tashrif buyurgan sayyohlar ingliz tilida emas balki uzining ona tilida suhbatlashishi ijobiy tassur qoldiradi deb hisoblayman. Bundan tashqari faqat xizmat ko'rsatadigan xodimlar emas balki mahaliy aholini ham chet tillarni bilish darajasini oshirish, va joylardagi mehmonxonalar sonini yanada ko'paytirish kerak deb hisoblayman.

Bugungi kunda mamlakatimizda turizm sohasidagi yaratilayotgan qulayliklardan yana bir bu qo'shimcha xususiy aviakompaniyalar tashkil etilgani bo'ldi. Bu esa O'zbekistonga tashrif buyuradigan sayyohlarning sonini yanada ortirishga sabab bo'ladi. Buni esa statistikalarda ham ko'rish mumkin misol uchun ⁷⁵birgina Samarqand aeroportini « beshinchi osmon » rejimida ishlashiga o'tgan hisobiga haftalik qatnovlar soni 46 tadan 78 taga yetgani, yo'lovchi oqimi esa 6,5 mingdan 10 mingga yetganini ko'rishimiz mumkin. Bundan ko'rinib turibdiki mamlakatimizning turizm salohiyati juda ham yuqori, biz esa mana shu salohiyatdan maksimal darajada foydalansak bu mamlakatimizning rivojlanishga ham Butunjahon Sayyohlik tashkilotidagi o'rnini ham anchagina mustahkamlagan bo'lamiz.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR :

1. <https://www.unwto.org/>
2. <https://yuz.uz/uz/news/ozbekiston-nomzodi-butunjahon-turizm-tashkiloti-ijroiya-kengashiga-azolikka-qoyildi>
3. https://uzbektourism.uz/downloads/files/statistika/2018-2022_sayoh_soni.xlsx
4. <https://president.uz/uz/lists/view/6095>
5. https://dunyo.info/uz/site/inner?slug=o'zbekistonning_bmt_butunjahon_sayyohlik_tashkiloti_bilan_o'zaro_hamkorlik_munosabatlari_tobora_ravnaq_topmoqd_a-UMq

⁷⁵ https://uzbektourism.uz/downloads/files/statistika/2018-2022_sayoh_soni.xlsx